



## O'ZBEK HIKOYACHILIGIDA SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODI

**Aliyeva E'zoza Zokirjon qizi**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti  
Jurnalistika fakulteti Adabiyotshunoslik(o'zbek adabiyoti) yo'nalishi  
2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev ijodiga oid ma'lumotlarga, asarlari, hikoyalariga, ijodiy merosiga to'xtalib o'tildi. Zamondoshlarining uning ijodi haqidagi fikrlari, adabiyotdagi o'rni, ijodining o'rganilishi haqida mulohaza yuritiladi.*


**Kalit so'zlar:** *o'zbek hikoyachiligi, yozuvchi uslubi, tabiat va inson munosabatlari, fenomen tushunchasi, adib ijodining davrlari, yozuvchi hikoyalaridagi inson tasviri, ruhiy holatni tasvirlash, o'ziga xos individuallik.*

Shukur Xolmirzayev ijodi hozirgi zamon o'zbek adabiyotining yorqin va mazmundor sahifalaridan birini tashkil etadi. Ko'p qirrali iste'dod sohibi Sh.Xolmirzayev adabiyotning turli janrlarida rang-barang hikoyalari, publitsistik maqolalari, tarixiy esselari, realistik qissalari-yu ajoyib romanlari bilan adabiyotimiz tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi.

Sh.Xolmirzayev yozuvchilar orasidan birinchilardan bo'lib o'zbek xalqi tarixining „bosmachilik harakati“ deb atalgan davrini o'rgana boshladi.

Ijodkor faoliyati haqida o'zbek adabiyotshunoslari turli fikrlar bildirgan. Jumladan, tanqidchi Umarali Normatov „Zaminda yashaymiz, zaminni o'ylaymiz“ maqolasida Sh.Xolmirzayev hikoyalariga xos mazkur xususiyat haqida shunday deydi: „Inson va tabiat munosabati Sh.Xolmirzayev hikoyalarining yetakchi leymotiviga aylanib qoldi. Shunisi xarakterliki, yozuvchining so'nggi yillarda yaratgan deyarli barcha hikoyalari shu mavzu doirasida atrofida aylansa-da, ular bir-birini takrorlanamaydi, har gal muallif masalining yangi qirrasini kashf etadi, yangi xarakter yaratadi, xarakter qalbining yangi tomonini ochadi...“ Adibning 1958-yili Q.Qulniyozov Boysun tuman gazetasida „Xatarli so'qmoqda“ nomli birinchi hikoyasi bosilib chiqadi.

Adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonov „Doim izlanishda“ maqolasida Sh.Xolmirzayevning yozuvchilik iste'dodi birinchi hikoyasidayoq namoyon bo'lganligini qayd etib yozadi: „Bolalik, o'smirlik paytlarida hayotdan olgan tajribasi asar yozish uchun kamlik qilar, hayot taassurotlari esa hali yetarli hazm bo'lmagan edi. Shu sababdan bu hikoya mavhumiyatlari, obrazini tasvirlashda, xususan, ularga individual bo'yoq berishga noaniqliklar bor edi. Lekin yosh muallifning kelajagidan darak beradigan badiiy parchalar ham yo'q emas edi unda. Agar o'sha vaqtlarda yosh muallifning bu hikoyasini o'qib ko'rgan gazetxonlardan birortasi „shu yigitdan yozuvchi chiqadi“ deb bashorat qilgan bo'lsa, xat o'qilmaydi.





Abdulla Qahhorlar avlodi o'zbek nasrining kichik janrida ulkan o'zgarishlar yasadi. Hikoyachilik burilish pallasiga kirdi. Badiiy mahoratni egallash, psixologizm vositasida tasvir va ta'sir quvvatini oshirish, o'ziga individual uslub yaratish, badiiy tilni sayqallash bobida yuksalish yuz berdi. Jahon va rus adabiyotidagi tajribalarni o'rganish, o'qish va uqish o'zbek adiblari ijodiga ijobiy ta'sir o'tkazdi. O'zbek yozuvchilari ham ixcham, ramzlari, tasvirlari quyuq hikoyalarida o'zbekona xarakterlar yaratishdi. Oz so'z bilan ko'p ma'nolarni anglatgan Abdulla Qahhor hikoyalari, shoirona nigoh mujassam topgan G'afur G'ulom nasri, Said Ahmadning hajviy hikoyalari o'zbek adabiyoti xazinasini boyitdi.

60-yillarda Shukur Xolmirzayev, O'lmas Umarbekov, Uchqun Nazarov, Ne'mar Aminov va boshqa yozuvchilar o'zidan avvalgi adiblar an'alarini davom ettirdilar. Ayni chog'da hikoyachilikda yangilikka, originallikka intildilar.

Bu adabiy avlod hikoyanavislari orasida Sh.Xolmirzayev alohida ajralib turadi. Voqelikka ortiqcha aralashmay, qahramonlarni yetaklamasdan xolis turib tasvirlash unga xos. Eng go'zal badiiy jihatdan pishiq asarlar yozgan bu adibning bayon usulida hikoya janrining hajm chegaralari parchalandi. Tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlik, jamiyat hayotidagi talato'plar va inson ruhiyatining sirli qirralarini mahorat bilan tasvirladi. Bunday asarlar adabiyotshunoslik faniga yangi nazariy fikrlar berishi ham tabiiydir.

Shukur Xolmirzayev biz mayda-chuyda deb bilgan narsalardan ham go'zallik topardi va ko'ngli yayrab ketardi.

Adib voqealarni oddiy kuzatuvchi sifatida tasvirlamaydi, balki ishtirokchiga aylanadi. Shu asosda har bir tasvirga, manzaralarga, qahramonlar siymosiga qalbini, butun borlig'ini baxsh etadi. Shuning uchun ham asarlarini kitobxonlar qo'lidan qo'ygisi kelmaydi. Takror-takror o'qiyveradi, o'qiyveradi, aslo to'ymaydi.

Yozuvchining kitobxonlar e'tiboriga havola etganlaridan tashqari turli sabablar bilan nashr yuzini ko'rmagan yoki qismi e'lon qilingan, alohida kitob shaklida chop etilmagan asarlari ham bor. Garchand umr bo'yi adabiyot dardi bilan yashab, uning muammosini o'z qayg'usi deb bilgan adib ko'proq yozishni o'ylagan asarlarining bosilib chiqishiga ikkinchi darajali masala deb qaragan. Bu haqida ijodkor shunday yozadi, „...meni hamma vaqt faqat yozish qiziqtirgan, yozish jarayonidan zavq olganman. Asar matbuotda chiqqach, bir kun-yarim kun xayolimda bo'lgan, keyin yelkamdan chiqarib tashlaganman, davomi qiziqtirmagan”.

Natijada yozuvchining ba'zi asarlari alohida kitob holida e'lon qilinmay, gazeta-jurnallar va ayrim to'plamlar qatida qolib ketaveradi...

Birinchidan muallif o'z ijodiga tanqidiy ko'z bilan qaragani, yozayotganlarini izlanishlar natijasi deb bilgani bois, ushbu asarlaridan ko'ngli to'lmagan. „Shukur Xolmirzayev o'ziga talabchan yozuvchi, -deb yozadi akademik Matyoqub Qo'shjonov. - Asar ustida uzoq vaqt ishlab, bitgach, o'ziga yoqmay qolsa, „uni bir amallab e'lon qilib ola qolay”, deb o'ylamaydi, hatto undan voz kecha oladi ham”. Bu fikrni yozuvchining o'zi ham tasdiqlaydi.





O'zbek hikoyachiligiga katta hissa qo'shgan adibning „Saylanma”lari(dastlabki uch jildiga) jamlangan 87 ta hikoyalari uning butun ijodi, xususan, kichik janrdagi samarali faoliyati haqida to'laqonli tasavvur bera oladi.

Yozuvchi ijodining o'ziga xosligi ayni paytda ijodiy jarayonning ham o'ziga xosligini belgilaydi. Ijodiy jarayon har bir yozuvchida o'ziga xos tarzda kechadi. O'ziga xos ijodiy uslub va individual ijodiy jarayonning qamrovi ham shuncha keng bo'ladi. Shukur Xolmirzayev ana shunday o'ziga xos badiiy uslub sohibi sifatida taqlidchilik, biryoqlamalilik va bayonchilikdan qochadi. Voqelik tasvirida so'zni g'oyat tejab sarflasa-da, fikrini o'quvchiga to'la va yorqin yetkazishga erishadi. Biroq, ba'zan uning ayrim asarlari tugallanmagandek, yozuvchi tomonidan o'quvchiga yetkazilmoqchi bo'lgan fikrlar nihoyalamagandek taassurot uyg'otadi. Shu bois o'quvchi asarning davomini kutadi. Adib odatda qahramonlar portretini chizmaydi, balki asosiy e'tiborini xarakter yaratishga qaratadi. Bu esa o'quvchini faollashtiradi, ya'ni uni o'ylashga, chuqur mulohaza qilishga undaydi. Sh.Xolmirzayev o'quvchisi shunchaki kitobxon emas, balki badiiy asarda tasvirlangan voqelikka, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradigan faol shaxsga aylanadi. Asar qahramonlari ustidan hukm chiqarish ham o'quvchi e'tiboriga havola etiladi.

Yana bir jihat yozuvchi uslubida o'rinsiz pauza, voqealar tavsifida keraksiz uzilishlar yo'q. Bu hodisa rus adabiyotida A.P.Chexov, o'zbek adabiyotida A.Qahhor ijodida kuzatilgan. Tadqiqodchilar haqli ravishda ta'kidlashganidek bu borada Sh.Xolmirzayev Chexov va Abdulla Qahhorning haqli izdoshidir.

„...qaysi tasviriy vositani qanday qo'llash orqali yozuvchining dunyoqarashi, g'oyasiga, voqelikka o'ziga xos munosabati, uni o'zicha tushuntirish uslubiga, badiiy tafakkuriga.. kechinma obrazlarning xususiyatiga, qisqasi, yozuvchining o'ziga xos uslubiga bog'liq”<sup>34</sup>.

Bu holni e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Shukur Xolmirzayev hikoyalari shu holni uchratamiz.

Adib ijodining ilk davrida uning o'ziga xos qarash va intilishlarini payqagan, yo'l-yo'riq ko'rsatganlardan biri Matyoqub Qo'shjonovdir. Ustoz 1969-yilda yozgan „Doim izlanishda” nomli maqolasida Sh.Xolmirzayev ijodiga alohida to'xtaladi. Maqola yosh yozuvchining „Xatarli so'qmoqda” hikoyasi tahlili bilan boshlanadi.

Shukur Xolmirzayev ijodini 3 bosqichga bo'lib o'rganish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Birinchi bosqich: 1953-1969-yillar

Bu davrda adabiyotni tanish, so'zga oshno bo'lish, ilk hikoyalarning yozilishi va matbuotdagi dastlabki chiqishlar.

Ikkinchi bosqich: 1970-1990-yillarni o'z ichiga oladi. Yozuvchi adabiyotda katta iste'dod sifatida tan olingan, o'z muxlis va o'quvchilariga ega bo'lgan davr. Bu yillar oralig'ida yaratilgan asarlarni mavzu va g'oya, uslub va mahorat jihatidan umuman boshqa bir olamga mengzash mumkin.

<sup>34</sup> S.Mamajonov „Uslub jilolari”79-bet





Uchinchi bosqich: 1991-2005-yillar bo'lib, bu davrni adib ijodining cho'qqisi, salkam ellik yillik ijodiy yo'lning sarhisobi desak, to'g'ri bo'ladi.

Sh.Xolmirzayev adabiy merosi nihoyatda salmoqli- yuzdan ortiq hikoya, e'lon qilingan 5 ta roman, e'lon qilinmagani yana ikkita, e'lon qilingan 4 ta qissa, e'lon qilinmagan yana bitta bor, bolalar uchun bitta komediya, va bitta pyesa, ikkita drama ikkita kinossenariy, „Tungi qadamlar” nomli radiopyesa, yigirmadan ortiq esse, o'nga yaqin ocherk, o'ndan ziyod maqola yozgan yozuvchini haqli ravishda adabiyotimiz xazinasini boyitgan so'z zargari deyishga haqlimiz.

1953-1969-yillarda yaratilgan dastlabki ijod namunalariga „Notanish odam”, „Nimadir yo'q bo'ldi”, „Olis yulduzlar ostida”, „Sog'inch”, „Ko'kboy”, „Yovvoyi gul”, „Kechagi kun – kecha” kabi hikoyalar kirib, bu asarlar orqali o'z yo'li va uslubi shakllanayotganidan darak berdi. Ushbu hikoyalar o'zbek adabiyotida mutlaqo yangi bir ovoz paydo bo'lganiga hujjat ediki, o'sha paytda bu asarlar nafaqat adabiyotshunos-u mutaxassislar e'tiborini, balki o'quvchilarni ham o'ziga rom etdi.

Sh.Xolmirzayev ijodida ko'tarilish, ya'ni uning professional hikoyanavis sifatida dovrug' qozonishi 1970-yildan boshlangan. Adib 1970-1990-yillari „Hayot abadiy”, „Og'ir tosh ko'chsa”, „Ot egasi”, „Boychechak ochildi”, „Jarga uchgan odam”, „Kulgan bilan kuldirgan”, „O'zbekning soddasi”, „Biz kech qolib yuramiz”, „Ora yo'l”, „ Arpali qishlog'ida”, „Keksa g'ijjakchi”, „Farzand”, „ Bahor o'tdi”, „Qariya”, „ Odam”, „ Podachi”, „Shudring tushgan bedazor”, „Cho'loq turna”, „Olam tortilish qonuni”, „Kimsasiz hovli”, „ Bodom qishda gullaydi”, „ Tabassum”, „Omon ovchining o'limi”, „Yashil „Niva””, „Haykal”, „O'zbek xarakteri”, „Hukumat”, „Qadimda bo'lgan ekan” kabi go'zal badiiy durdonalar yaratdi.

Shukur Xolmirzayev „o'zbek sovet adabiyoti” degan katta jangohning bir chetiga haqiqiy milliy, o'zbekona qahramonlarini dadil safga chizdi. Yana bir jihatga alohida to'xtaladigan bo'lsak, ijodkor hikoyalarida o'sha davrning qotib qolgan socialistik realizm metodini ko'rmaymiz. Yuqorida keltirilgan asarlar, avvalo, mana shu jihati bilan o'quvchilarni o'ziga qaratdi. Hikoyalarida o'quvchilar bezib ketgan sun'iy, soxta suratlar emas, jonli odam tasvirlanadi. Ular hayotning murakkab, chigal vaziyatlarida, turmushning o'nqir-cho'nqirlarida tasvirlandi. Ular to'g'on qurmadi, cho'l quvmadi, neft-gaz ham qidirgan emas, o'zlarining „kichkina” haqiqatlari- insoniy or-nomusi, millat g'ururi va sha'ni, ona tabiati, yaxshi ko'rgan oti, ajdodlar yodi, oyoqosti bo'lgan e'tiqodi uchun kuydi, o'rtandi.

Shukur Xolmirzayev XX asr milliy hikoyachiligimizning fenomen hodisasidir.

Fenomen tushunchasiga „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”da,, kamdan-kam, g'ayrioddiy hodisa, fakt, his-tuyg'u tajribasi bilan paykallanadigan hodisani anglatuvchi falsafiy tushuncha”<sup>35</sup> deb ta'rif berilgan. Adib shaxsi, ijodi va hatto turmush tarsi ham mutlaqo o'ziga xos bo'lganini uni yaqindan bilganlar ko'p ta'kidlashgan.

<sup>35</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”





O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov shunday yozgan edi: „Men o'zimni qanchalik bilsam, Shukur Xolmirzayevni ham shunchalik bilaman desam to'g'ri bo'ladi. Shukur Xolmirzayev haqiqatan Alloh ato etgan iste'dod sohibi edi. Uning fe'li atvorida ham o'ziga xoslik bor edi, u boshqalardan tamomila ajralib turardi. Shukurjon yaxshi she'rlar yozardi, yarim chin, yarim hazil qilib, „Abdullajon she'ri o'zingiz yozavering, men nasrda yozaman“, deb prozaga egalik qilib oldi. Jahon prozasining mashvaratida Shukur Xolmirzayevning o'z o'rnini bor. Buni e'tirof etish kerak”.<sup>36</sup>

Abdulla Qahhordan keyin o'zbek hikoyachiligini sifat jihatdan bir pog'ona ko'targani ko'pchilik tomonidan aytib kelingan va hali-hanuz ta'kidlanadi. Lekin mumtoz hikoyanavisning o'zi biron bir o'rinda „hikoyachilikni bir pog'ona ko'tardim“, degan emas. Adibning uch tomlik hikoyalari har jihatdan Abdulla Qahhordan uzilish ilgarilab ketganini ko'rsatadi. Shukur Xolmirzayev ruhi baland, erksevar shaxs bo'lgani bois tabiatan mutelikni, munofiqlik va xiyonatni juda yomon ko'rar edi. Bu qarash asarlariga ham singdirilgan. Bir so'z bilan aytganda, erkinlik-yozuvchi ijodining bosh g'oyasi.

Milliy adabiyotimizning yigirmanchi asr boshlaridan toki bizning kunlargacha bo'lgan davri, ya'ni oxirgi yuz yillikda hikoya janri tadqiq etiladigan bo'lsa, Shukur Xolmirzayev yaratgan hikoyanavislik maktabi birinchilardan bo'lib e'tirof etiladi. Mazkur janrda salafaridan ilgarilab ketgan ijodkor o'zbek hikoyachiligini har jihatdan takomiliga yetkazgan haqiqiy usta edi. Shukur Xolmirzayev o'ziga xos uslubi ikkita omilga ko'ra shakllangan. Birinchidan, til xususiyatiga ko'ra, ikkinchidan, xalq dostonlari, ertak-u rivoyatlar, maqol-matallarga tayangan individuallik.

Yozuvchi asarlarida asosan, vatanparvar, tog'liklar va kasb-u kori, hayoti tog' bilan bog'langan insonlar tasvirlanadi. Chunki adibning bolaligi purviqor Boysun tog'larida o'tgan. Esini tanigandan toki poytaxtga o'qishga kelguncha u o'sha sirli va sokin archazorlarda, dara-yu soylarda miltiq ko'tarib kezingan, ov-ovlab, g'orlarda tunab yurgan. Yozuvchining o'zi qahramonlari timsolida shu tuproq meniki, uning darranda-yu parrandasi, o't-o'lanlari va qushlari ham meniki, deb sevib yashadi va kitobxonlarni-da shunday hislarga oshno etdi. Shukur Xolmirzayev hikoya, qissa, roman, esselarida vatan manzaralari-tabiatni quyuc, yorqin bo'yoqlarda botiniy sevgi, tiyiqsiz mehr bilan, ta'bir joiz bo'lsa hatto naturalist rassomdan ham yaxshiroq gavdalantiradi. Pirovardida mutolaa berilgan o'quvchi o'zini unutib asarga sho'ng'iydi, qahramon bilan birga muallifning sirli olamiga sayohat qiladi.

Sinchi adabiyotshunos va munaqqidlar yakdil e'tirof etganidek, Shukur Xolmirzayev realist yozuvchi. Adib o'z ijodi bilan realizmning imkoniyatlari keng ekanligini isbotladi. Ammo yozuvchining butun ijodini faqat realism tarozusida o'lchasak adolatdan bo'lmas. „Bular qandaydir sintez javohirlar...ularning fazilati katta”.

<sup>36</sup> O.Toshboyev „Adabiy zamondosh” 134-135-bet





Shukur Xolmirzayev ijodi haqida hurmatli adabiyotshunoslarimizdan Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Norboy Xudoyberganov, Pirmat Shermuhamedov, Yo'ldosh Solijonov, Akram Kattabekov, Ochil Tog'ayev, Salohiddin Mamajonov, Ibrohim G'afurov, Isroil Mirzayev, Hakimjon Karimov, Sobir Mirvaliyev, Qozoqboy Yo'ldoshev, Hamidulla Boltaboyev, Xurshid Do'stmuhammedov, Shuhrat Rizayev, Bahodir Karimov, shuningdek ,tadqiqodchilar Qodir Pirmatov, Muhammadi Jumanov, Muhayyo Hamidova, Otabek Safarov ko'plab ilmiy, tanqidiy maqolalar e'lon qilgan.

Mustaqillikning yigirma besh yili davomida Ro'ziqul Normurodov, Shoir Doniyorova, Gulbahor Tavaldeyeva, Marhobo Qo'chqorova kabi yosh olimlar bevosita Shukur Xolmirzayev ijodi, asarlarining til xususiyatlari va badiiy mahorati bo'yicha nomzodlik dissertasiyalari himoya qildi. Bu tadqiqodlar yozuvchi adabiy merosining o'ziga xos jihatlari, o'zbek hikoyachiligidagi adib yaratgan maktab, Shukur Xolmirzayevning xarakter yaratish mahorati, til va tasvir xususiyatlari, bir so'z bilan aytganda, adib ijod olami aks etgan.

Shukur Xolmirzayevga bag'ishlab O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zam, O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim, yozuvchi Erkin Usmon, shoir Muhammad Rahmon, Tursun Ali, Berdi Rahmat, O'roz Haydar, Bobomurod Erali, Shodmonqul Salom hikoyalar va she'rlar yozgan.

Shukur Xolmirzayev o'zini -o'zligini topgan adib. Shu sababli ham uning qahramonlari, yozish uslubi hech kimnikiga o'xshamaydi. Tanlangan mavzu, topilgan g'oya hamma vaqt ham original bo'lmasligi mumkin, gap uni tasvirlashda, ko'rsatib berishda.

O'zbek milliy prozasi tarixida o'z o'rnini va nufuziga ega bo'lgan katta adiblarimiz ijodi va asarlarini zarracha kamsitmagan holda aytish kerakki, yozgan asarlarining nafaqat salmog'i, balki til va uslub go'zalligi, original obraz va yorqin xarakterlar yaratish mahorati bilan Shukur Xolmirzayev milliy nasrimizda tamomila yangicha bir yo'nalishga asos slogan ulkan adibdir. Yozuvchi ijodini e'tibor bilan kuzatsak, u avvalo qahramon portretini jonli tasvirlashda tengsiz bo'lganligini, shu bilan birga ,qahramonlarning ko'ngil kechinmalarini, ruhiy dunyosini mahorat bilan tasvirlaganini ko'rish mumkin. Xalq hayotini, uning psixologiyasini, o'y-kechinmalarini, o'zbekona olamini mukammal bilgani uchun ham tirik obrazlar, qahramonlar yarata oldi. Shukur Xolmirzayev mustabid tuzum davrida hukmron partiyaning siyosiy quroliga, tashviqot mashinasiga aylangan adabiyotni o'zining qadimiy o'zaniga solishga intildi va bu yo'ldagi barcha g'ov va to'siqlarni mardona yengib o'tdi

Professor U. Normatov 1978-yildayoq Shukur Xolmirzayev hikoyalarining o'ziga xos badiiy shakliga oid quyidagi fikrni bildirgan: „Shukur Xolmirzayev hikoyalari uslubi, ifoda usullari, tasvir ohangi, ritmikasi bilan ham e'tiborni tortadi.“<sup>37</sup> Munaqqid anglatgan uslubiy jihat haqiqatdan ham yozuvchi fikrini qisqa lo'nda tasvirlashga odatlanganligidan dalolat beradi. Uning tengdoshlaridan U. Nazarovda

Normatov U. Nasrimiz an'analari. 205-bet.





„tushuntirish uslubi”, O‘tkir Hoshimovda „izohlash uslubi” kuzatilsa, Sh.Xolmirzayevda „ruhiy holatni tasvirlash” ustuvorlik qiladi. Uning ilk so‘ziyoq holat tasviridan boshlanadi. Shu bois yozuvchi gapni „aynaltirmaydi”, darhol maqsadga o‘tadi. Bu ham yozuvchining ifoda usulida o‘ziga xoslik mavjudligidan dalolat beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Normarov.U.,„Nasrimiz an‘nalari”205-bet
- 2.Toshboyev.O.,„Adabiy zamondosh”, „G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi , T:2018-134-135b
- 3.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi
- 4.Mamajonov. S.,„Uslub jilolari” 79-bet

